

O‘QISH DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISH

Toshkent gumanitar fanlar universiteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi
Mamatsapoyeva Sevinch

Annotatsiya: *Maqola doirasida o‘qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish, ularni qanday usulda olib borish, qanday mustaqil ishlarni tashkil qilish ertak matnlari asosida mustaqil ishlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *Mustaqil ish, boshlang‘ich, ertak, matn, o‘qish, bo‘g‘irsoq*

Abstract: *In the framework of the article, independent work was discussed in the reading classes, how to conduct it, how to organize independent work based on fairy tales.*

Key word: *Independent work, starter, fairy tale, text, reading, hoarse*

Mustaqil ish mashqning faol turi bo‘lib, uni bajarish jarayonida o‘quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o‘rganadilar. Bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplektli maktablarda mustaqil ish, ayniqsa, juda zarur hamda katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida mustaqil ishlardan foydalanish muhim jarayon bo‘lib, uni bajarish jarayonida o‘quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o‘rganadilar. O‘quvchilarga darslikdagi mavzu tushuntirilib berilgach mustaqil ishga o‘tiladi. O‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi aniq va qisqa tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan mavzu kichik va o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak.

O‘qish darslarida mustaqil ishni bajarishga bolalar mustaqil ravishda tayyorlanadilar. O‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi ularga qisqa va aniq qilib tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik bo‘lishi kerak va o‘quvchilar yoshiga mos holda bo‘lishi lozim. Mustaqil ish turlari har xil bo‘lib, uni tanlashda didiktik ahamiyatga ega bo‘lgan matnlar tanlab olinadi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Asarni ichda o‘qish. 1-sinfda bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so‘zlarni kesma harflar bilan tuzdirish va uni o‘qishni mashq qildirish maqsadga muvofiq. O‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o‘qib, ayrim qatnashuvchi shaxslarning gaplarini topish, uni o‘qish va o‘z so‘zi bilan gapirib



berish, matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topish kabi topshiriqlar berilishi

mumkin. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga berilgan savollarga javob berishlari kerak bo'ladi. Masalan: Matnda ifodalangan ma'lumotlarni qayta hikoya qilishlari va qahramonlarning gaplarini, ya'ni kim aytganligini topish kerak bo'ladi.

2. O'qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. Bu mashq bolalarni diqqat-e'tibor bilan o'qishga o'rgatadi. Mashqning bu turi asta murakkablashtira boriladi: avval o'quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o'zlashtirsalar, keyin asarning asosiy g'oyasini bilib oladilar, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishlarini tushunadilar. Masalan: “Bo'g'irsoq” ertagini matnini oladigan bo'lsak, unda ifodalangan asosiy g'oyani topishlari va o'quvchilar o'zlari xulosalashga o'rganishi kerak. Matnni diqqat bilan o'qishlari kerak va berilgan savollarga javob topa bilishlari kerak bo'ladi.

3. O'qilgan asar mazmunini to'liq anglash, bilib olish uchun o'qituvchi topshirig'ini bajarish. Topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin: “Bo'g'irsoq” ertagi matni bo'yicha:

— Nima uchun xiyonatkor va aldoqchi insonlar hayotimizda uchraydi.

(“Bo'g'irsoq” ertagi matni)

— o'qing va nima uchun bo'g'irsoqning o'limiga sabab bo'lgan voqeani tu shuntirib bering. (“Bo'g'irsoq” ertagi matni) va hokazo.

Bundan tashqari turli xil rasmlar orqali ham ertak matni bilan tanishtirish va topshiriqlar berish mumkin.

Ba'zan topshiriqlar turli xildagi qayta hikoyalashni talab qiladi:

a) matnning ayrim o'rinlaridan foydalanib (ko'chirma olib) qayta hikoyalash;

b) hikoyani bir sujet chizig'i asosida qayta hikoyalash;

d) matnni qisqartib qayta hikoyalash;

e) matnning shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash va boshq.

4. O'qilgan matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish.

Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1) o'qilgan matnga oid rasm chizish;





2) rasmga matndagi so'zlar yoki o'z so'zi bilan sarlavha qo'yish;

Bo'g'irsoq ertagi



3) o'qituvchi tomonidan tartibsiz berilgan savollardan foydalanib reja tuzish;

4) matnni qismlarga bo'lish va har bir qismga sarlavha qo'yish va hokazo.

Bundan tashqari mustaqil ravishda bolalarga topshiriq berishda quyidagi savollarni topshiriq qilib berish mumkin.

1. Qahramoni tulki bo'lgan beshta ertakni ayting.

2. Ertakda Bo'g'irsoq nechta hayvonga dush keladi va ularning nima qilganliklarini yozing.

3. Bo'g'irsoq nima uchun aldanib qoldi?

Ertaklar bolajonlarimizning tasavvur olamini kengaytirishga, nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni fikrlashga o'rgatadi. Ushbu turkumdagi ertaklar farzandlarimizning odob-axloqli, barkamol bo'lib ulg'ayishlari uchun yordam beradigan mavzulardan. Ertak mazmuniga mos rasmlar, bezakli hoshiyalar bolajonlarimizga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Bu kabi topshiriqlar bolalarga o'qish darslarida mustaqil o'qishga shu bilan birga erkin fikrlashga yordam beradi. Mustaqil ishning qay darajada saviyasi yuqori ekanligi bu tanlagan matn bo'yicha belgilanadi.

Mustaqil ishning qanday bajarilganligini hisobga olish o'quvchilarning tayyorlik darajasini aniqlashda va keyingi bosqichlarda mustaqil mashqni to'g'ri tashkil qilish uchun material tanlashda o'qituvchiga yordam beradi.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi”.
2. “Ziyonet” internet tarmog‘i.
3. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali.
4. O‘zbek xalq ertaklari. 2-tom. – T.: 2015.

